

УДК.631.312

TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI ISH ORGANLARINING RAMAGA BOG‘LANISH SXEMALARINING TAXLILI

D.Karimova-(PhD)

O.Turg‘unova- talaba

M.Ismoilov-talaba


ANNOTATSIYA

Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ish organlari ikki il usulda rama bilan qo‘zg‘almas va qo‘zg‘aluvchan bog‘langan, ish organlarining taxlili o‘rganilgan.


Kalit so‘z: Rama, ish organi, sharnirli bog‘langan, tik reaksiya kuchlari, tayanch qurilmalar, radial va parallelogramm osish mexanizmlari.

Tuproqqa ishlov berish mashinalarining ish organlari ular ramasi bilan qo‘zg‘almas yoki qo‘zg‘aluvchan (sharnirli) bog‘lanadi.

Ish organlari qo‘zg‘almas bog‘langanda ular ramaga boltlar bilan biriktiriladi va shu sababdan dala yuzasining mikrorelefi (notekisliklari)ga moslashish imkoniyatlariga ega bo‘lmaydi hamda mashina ramasi xolatining har qanday o‘zgarishi ish organlarining tuproqqa botish chuqurligini o‘zgarishiga olib keladi. Buning natijasida ishlov berish chuqurligining bir tekisda bo‘lishi ta‘minlanmaydi. Shu sababli ish organlari ramaga qo‘zg‘almas biriktirish qamrash kengligi kichik hamda yerlarga chuqur ishlov beradigan mashinalar (ag‘dargichli va diskli pluglar, chuqur yumshatkichlar, chizel –kultivatorlar, tishli va diskli boronalar)da qo‘llaniladi. Ular tayanch qurilmasiz va tayanch qurilmali bo‘ladi (1-rasm).



a)



b)

1-rasm; 2-ustun; 3- ish organi; 4-tayanch qurilma(g‘ildirak);

a)tayanch qurilmasiz; b)tayanch qurilmali


1-rasm. Ish organini rama bilan qo‘zg‘almas bog‘lanishi.

Odatda ish organlariga ta'sir etuvchi tik reaksiya kuchlari pastdan yuqoriga yo'nalgan mashinalardagina (masalan diskli pluglar va boronalar hamda tishli boronalar) tayanch qurilmalari qo'llanilmaydi. Qolgan barcha mashinalar tayanch qurilmalar (g'ildiraklar) bilan jihozlangan.


Sharnirli bog'langanda ish organlari mashinalar ramasiga osish mexanizimlari vositasida o'rnatiladi. Bunda ish organlari dala yuzasining notekisliklariga moslashib ishlash imkoniyatlariga ega bo'ladi hamda mashina ramasi holatining o'zgarishi ularning yurish chuqurligiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.

Tuproqqa ishlov berish mashinalarida asosan radial (bir sharnirli) va parallelogramm (ko'p sharnirli) osish mexanizimlari qo'llaniladi (1.2 va 1.3- rasmlar). Radial osish mexanizimi qo'llanilganda ish organi (1.2-rasm) mashina ramasiga tortqi 2 bilan sharnir 4 bilan orqali ulanadi, parallelogramm osish mexanizimi qo'llanilganda esa (1.3-rasm) –tortqilar 5 va 6 hamda sharnirlar 7 va 8 orqali ulanadi.

Individual



Seksiyali




1- ish organi; 2- tortqi; 3-mashina ramasi; 4-sharnir; 5-boshim purjinasiz;
6- shtanga; 7-tirak; 8-richak; 9-tayanch g'ildirak.

a) Tayanch qurilma va bosim purjinasiz; b) tayanch qurilmali va bosim purjinasiz; v) tayanch qurilmasiz va bosim purijinali; g) tayanch qurilma va bosim purijinali.

1.2-rasm. Tuproqqa ishlov berish mashinalari ish organlarini rama bilan radial osish mexanizimi vaositasida bog'lanish sxemalari.

Individual



Seksiyali

Tuproqqa ishlov berish mashinalari ish organlarini rama bilan parallelogram osish mexanizimi vositasida bog'lanish sxemalari.

1-ish organi; 2-gryadil; 3,4-parallelogramm mexanizmning qo'zg'aluvchan sharnirlari; 5,6-parallelogramm mexanizmning bo'ylama tortqilari;

7,8- parallelogramm mexanizmning qo'zg'almas sharnirlari; 9- mashina ramasi; 10-bosim purjinasi; 11-tayanch g'ildirak.

a) Tayanch qurilma va bosim purjinasiz; b) tayanch qurilmali va bosim purjinasiz; v-tayanch qurilmasizva bosim purjinali; g)tayanch qurilma va bosim purjinali.

XULOSA

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida Parallelogram osish mexanizmi radial osish mexanizmiga nisbatan murakkab tuzulgan va materialhajmdor. Ammo bu mexanizim qo'llanganda dala yuzasi mikroelefi, ishlov berish chuqurligi va mashina ramasi balandligini o'zgarishi ish organlarining tuproqqa kirish burchaklariga ularni botish chuqurligi ta'sir ko'rsatmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Baymetov R.I., Tuxtakuziev A., Axmetov A.A. Obosnovanie tipa i parametrov mexanizma naveski universalnogo doposevnogo orudiya // Issle-dovaniya po optimizatsii mexanizirovannykh protsessov v xlopkovodstve. Sb. tr. /SAIME. – Tashkent, 1989. – Выр.31. – S. 31-37.
2. Tuxtakuziev A., Abdulxaev X. Issledovanie ravnomernosti glubi-ny xoda rыхlitelya dlya predposevnoy obrabotki grebney // Mexanizatsiya i elektrifikatsiya selskogo xozyaystva. – Moskva, 2013. – №6. – S.4-6.
3. Tuxtakuziev A., Ibragimov A., Atamkulov A. Issledovanie ravno-mernosti glubiny xoda borzdoreza seyalki dlya seva zernovykh v polivnom zemledelii // Texnika v selskom xozyaystve. – Moskva, 2014. – №5. – S.2-3.
4. To'xtaqo'ziyev A., Abdulxayev X, Karimova D. Investigation of steady movement of working bodies on depth of processing that connected with frame by means of parallelogram mechanism// Journal of Critical Reviews, may 2020 Scopus 7 (14), page 573-576. [doi:10.31838/jcr.07.14.98](https://doi.org/10.31838/jcr.07.14.98)
5. To'xtaqo'ziyev A., Karimova D., Sultonov Z. U., Ozodmirzaeva Sh., Abdunabiyeva

F. Siyentifis-techniquye toensure thestable movementof working bodi yess onne stedbyt heramaand parallelogram mechanism sof soiltreatment machines // InnovativeTechnologisa. Methodisal research journal, Volume 2, Issuye 5 May, 2021.

<https://it.asademiassiyense.org/index.php/it/artisle/viyew/69>.

6. Karimova D. Rezultaty ispytaniy zubovoy seksii orudiya dlya obrabotki grebney // Proceedings of the 2 nd International Scientific and Practical Conference scientific community: Interdisciplinary research Hamburg. Germany January, 2021.-№;40.-B. 521-522.